
QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI I.NOVIKOVNING 8-MART XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI



Assalomu alaykum Muhtarama onaxonlar, qadrli opa-singillar!

Barchamiz orziqib kutgan yangilanish va yasharish fasli bo'lmish bahor kirib kelishi bilan tabiat uyg'onib, ko'ngillarimiz yorug' tuyg'ularga to'lib borayotgan mana shu shukuhli ayyomda Sizlarni, Sizlar orqali butun tumanimiz xotin-qizlarini yaqinlashib kelayotgan 8-mart xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan chin qalbidan muborakbod etaman!

Biz bugun Yaratganning buyuk mo'jizasi bo'lgan, hayot davomiyligi va abadiyligini o'zida mujassam etgan, ayol deb atalgan ojiza qalb egalarini, tabarruk onalarni ulug'lar ekanmiz, beixtiyor "Jannat onalar oyog'i ostidadir" degan hikmatli so'zlarni eslaymiz va muqaddas Ona siymosi oldida ta'zim qilamiz.

O'zining latofati va nafosati, vafo va sadoqati, qalb saxovati bilan oilani oila qiladigan, xonadonlarimiz bekasi bo'lmish Siz, munis ayollarimizga har qancha tasannolar aytsak, sizlarni har qancha e'zozlab, boshimizga ko'tarsak, arziydi, albatta.

Haqiqatan ham, sizlarning yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni saqlash, oilalarni mustahkamlash, jamiyatimizda mehr-oqibat muhitini kuchaytirishdagi o'rningiz va ta'siringizni, chidam va sabr-bardosh, oqilalik va shukronalik kabi fazilatlaringizni hech narsa bilan qiyoslab, baholab bo'lmaydi.

O'zining go'zalligi va fidoyiligi, mehnatkashligi va bag'rikengligi bilan bizning yurtimiz ayollariga teng keladigan ayollar dunyoda yo'q desam mubolag'a bo'lmaydi.

Hurmatli opa-singillar!

Bugun biz boshimizdan kechirayotgan, tez o'zgarib borayotgan globallashuv zamonida sizlarning hech kimdan kam bo'lmasdan, hayotimizning hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlarida, zamon talablari bilan har tomonlama uyg'un va hamohang bo'lib, ulkan yutuqlarga erishayotganingizni biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Bugungi kunda yurtimizda ko'plab xotin-qizlarimiz iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasida faol mehnat qilmoqda.

Bugungi kunda ayollarimizning nozik qo'llari, intellektual salohiyati, tirishqoqligi va mahorati bilan yurtimizda ko'plab sohalar keng rivoj topmoqda. Boshqacha aytganda, bizning ayollarimiz ana shu o'ta murakkab jabhada ham barchani qoyil qoldirmoqda.

Aziz va muxtarama ayollar, onaxonlar, opa-singillar!

Barchangizga uzoq umr, sihat-salomatlik tilagan holda, yana bir-bor bahorning ilk bayrami 8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbdan muborakbod etaman.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-03-07 13:15:11